

## **BILOL IBN RABOHNING ISLOMGA KIRIB KELISHI**

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov

Habibullayev Fathulla Vaxob o‘g‘li

Toshkent axborot texnologiyalari unversteti

Samarqand filiali telekomunikatsiya

texnologiyalari va kasb talim fakulteti 1-kurs talabasi.

### **Anotatsiya:**

Ushbu maqola Bilol ibn Rabohning islomga kirib keishi, uning hayoti qanday ta’surotlar bilan o’tganligi, hayoti qanday qiyinchiliklar bilan o’tganligini tasvirlab o’tilgan.

**Kalit so‘zlar:** islom, din, iymon, nomoz, qur’on.

BILOL, to‘liq ismi Abu Abdullo Bilol ibn Raboh al-Habashiy (? - 641) - islom tarixvdagi birinchi muazzin. Baland, shirali, ta’sirli ovozga ega bo‘lgan. Asli habashistonlik, Makkada islomni birinchilardan bo‘lib qabul qilgan qullardan.<sup>1</sup>

Hazrati Umar (r.a.) Hazrati Abu Bakrni (r.a.) eslaganida shunday der edi: "Abu Bakr sayyidimiz va sayyidimizni ozod qilgan kishidir". Bunda u Bilol Habashiyni (r.a.) nazarda tutgan. Hazrati Umar (r.a.) "sayyidimiz" deb atagan bu kishi ulug' va aziz insonlardan edi... Ammo qop-qora, ozg‘in, bo'ydon, quyuq sochli va tuksiz yuzli bu kishi bunday maqtovlarni bosh egib va ko'zlarini yumgan ko‘yi tinglar va shunday der edi: "Asli men habashiyman, kechagina qul bo‘iganman!" Kechagina qul bo‘igan bu habashiy asli kim edi?

U Islom muazzini va but-sanamlarni bezovta etuvchi Bilol ibn Raboh (r.a.) edi. U imon va rostlik mo”jizalaridan biri edi. U buyuk Islomning yorqin siymolaridan edi.

Qur'on nozil bo'la boshlaganidan to bugungacha har o'n musulmondan kamida yetti nafari Hazrati Bilolni biladi. Ya'ni, zamonlaru avlodlar osha yuzmilyonlab insonlar uni taniydlilar. Siz hali boshlang'ich ta'lim bosqichlaridan hatlamagan bolakaydan ham, yer yuzining istalgan burchagida yashayotgan musulmon farzandlaridan ham: "Bilol kim, ey bolam?" deb so'rasangiz, u hech ikkilanmay: "Bilol Rasulullohning (s.a.v.) muazzinlari, xojasi dindan qaytarish uchun ustiga og'ir

<sup>1</sup> Arabchadan Mubashshir Ahmad tarjimasi | "Hidayat" jurnalining 2004-yil, 5-sonidan



xarsang qo‘yib azoblaganida ham "Ahad, Ahad" (Alloh yakkadir) degan sahoba" deb javob qiladi.

Islom Hazrati Bilolga bergen bunday sharafni ko‘rib aytamizki, u Islom kelmasidan avval bir hovuch xurmo evaziga xojasining tuyalarini boqib yurgan qul edi. Agar Islom bo‘lmaganida uning peshonasidan o‘la-o‘lgunicha qullik tamg‘asi ketmas, bashar izdihomida oyoqosti bo‘lar, nomi yo‘qlik qa‘rida benomu nishon unutilib ketar edi. Lekin rost imoni, inongan buyuk dini unga hayotda va tarixda Islom ulug'lari va valiylari aro oliv maqom va yuksak rutba ato etdi!<sup>2</sup> Oliynasab, obro‘li, nufuzli va mol-dunyo sohibi bo‘lgan aksar odamlar habashiy qul Bilol kabi azizlik va martabani qo‘lga kirita olmagan. Tani qoraligi, hasab va nasabda nochorligi uni rostligi, imoni, pokizaligi, fidoyiligi erishtirgan yuksak maqomidan mahrum qilolmadi. Bilol juda ko‘p voqeа-hodisalarga guvoh bo‘lib yashadi. Namozga azon aytib, o‘zini zulmatdan nurga, qullikdan hurlikka chiqargan buyuk dinning marosimlarini ado etib, himoya qilib, Allohnning Rasuli (s.a.v.) bilan birga yashadi.

Islomning sha'ni yuksaldi. U bilan birga musulmonlarning ham mavqe-martabalari ko‘tarildi. Har bir o‘tgan kun Bilolning Rasululloh (s.a.v.) qalblariga yaqinligini shu qadar ziyodalashtirdiki, uni "jannat ahlidan bo‘lgan kishi" deb tavsifladilar. Lekin Bilol odatdagiday kamtar, sertavoze' holida qoldi. U o‘zini "kechagina qul bo‘lgan kishi" deb hisoblardi.

Bir kuni o‘zi va inisigasovchi bo‘lib ikki ayolnikiga bordi va ularning otasiga shunday dedi: Men Bilolman, bu esa inim, habashlik bo‘lgan ikki qulmiz. Zalolatda edik, Allah hidoyat qildi. Qullar edik, Allah ozod qildi. Agar qizlaringizni bersangiz, Allahga hamdlar bo‘lsin! Agar xohlamasangiz, Allah ulug‘dir!.. Rasululloh (s.a.v.) rozi holda va rozi bo‘lingan holatda Rafiqul A’loga rihlat qildilar. Keyin musulmonlarning ishiga Abu Bakr Siddiq bosh bo‘ldi. Bilol Rasulullohning (s.a.v.) xalifalari huzuriga borib:

Ey Rasulning xalifasi, men Rasulullohning: "Mo‘min amalining afzali Allah yo‘lidagi jihoddir", deganlarini eshitganman», dedi. Abu Bakr:

Nima xohlaysan, ey Bilol? deb so‘radi. Bilol:

To o‘lgunimcha Allah yo‘liga aloqadorlikni istayman deb javob qildi. Abu Bakr Siddiq s‘radi:

Unda bizga azonni kim aytadi?

Bilol ko‘zları jiqla yoshga to‘lib, javob qildi:

Men Rasulullohdan keyin hech kimga azon aytmayman!

<sup>2</sup> Muslim.uz



Abu Bakr:

Qolib, bizga azon aytib turgin, ey Bilol, deya iltimos qildi. Shunda Bilol aytdi: Agar meni o‘z nafsing uchun ozod qilgan bo‘lsang, sen istagandek bo‘laqolsin. Agar Alloh uchun ozod etgan bo‘lsang, unda men va Uning uchun ozod qilingan Zot o‘rtasidagi ishga aralashma!

Abu Bakr Siddiq (r.a.) javob qildi:

Seni Alloh uchun ozod qilganman, ey Bilol!

Bilol qolgan umrini Islom chegaralarida o‘rnashib o‘tkazdi. Alloh va Rasuliga yo‘liqquniga qadar Alloh va Payg‘ambarimiz yaxshi ko‘radigan amallarda g‘ayrat ko‘rsatdi. Uning kuchli, o‘tkir va g‘amnok ovozi azon aytib boshqa yangramadi. Sababi shuki, u azon aytarkan: "Ashhadu anna Muhammadar Rasululloh" jumlasiga kelganida xotiralardan qiynalib, ovozi bo‘g‘ilib qolar, kalima va iboralarga qo‘shilib ko‘zlaridan yosh jalasi quyilaverar edi.

Bilol so‘nggi marta Hazrati Umar (r.a.) Shomni ziyorat qilgan kunlari azon aytdi. Musulmonlar Bilolni bir martagina namozlariga azon aytib berishiga ko‘ndirish uchun mo‘minlar amirini vasila qilishdi. Hazrati Umar Bilolni yoniga chorladi. Namoz vaqtini kirganida undan azon aytib berishini iltimos qildi. Bilol mezanaga ko‘tarildi va azon aytdi... U azon aytar ekan, Rasulullohni (s.a.v.) ko‘rgan sahabalar yig‘lab yuborishdi. Yig‘laganlarida ham oldin hech qachon ko‘rilmaganidek qattiq ko‘zyosh to‘kishdi. Eng qattiq yig‘lagan Hazrati Umar bo‘ldi...

Hazrati Bilol roziyallohu anhu ozodlikka chiqishi bilan Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning xizmatlariga hozir bo‘ldi hamda qolgan hayotini Islom uchun baxshida qildi. U kishi asli habash qavmidan bo‘lib, Makkaga yaqin bir joyda tug‘ilgan, tug‘ilishidan qul edi. Xo‘jayini ismi Umayya ibn Xalaf Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga va Islomga ashaddiy dushman edi.

Bilol roziyallohu anhu Islomni birinchilardan qabul qildi, balog‘atga yetgan kishilar orasida Hazrati Abu Bakrdan keyin imon keltirgan ikkinchi odam bo‘ldi.

Islomning dastlabki pallalarida musulmonlarning holati juda og‘ir, Makka mushriklari Islomga kirganlarni nihoyatda og‘ir qiyin-qistovlarga olar edi. Hammasidan ham Hazrati Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamga yetkazilayotgan aziyatlar o‘tib tushardi. Islomni qabul qilish o‘ziga musibat va zulm keltirishdan boshqa narsa emas edi. Xususan, Biloldek qullar misli ko‘rilmagan azob-uqubatlarga solinar edi. U davrlarda xo‘jayinlar qullar ustidan to‘liq haq-huquqli bo‘lganidan, ko‘ngillari tusagan ishni qilishardi. Hech kim ularga e’tiroz qilmasdi. Hazrati Bilol ham bu holdan xabardor edi. Ammo uning qalbida Payg‘ambarning

sollallohu alayhi vasallamga muhabbat hamda Islomning buyukligi o‘rnashib qolgani uchun bu sinovlardan qo‘rqmadi. Imonida mustahkam turdi, insoniyatga misli ko‘rilmagan darajada namuna qoldirdi.

Hazrati Bilol roziyallohu anhu Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam xizmatlarini qilishni o‘zi uchun baxt va ibodat deb bildi. Bora-bora u shu darajada ishonch qozondiki, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam to dunyodan ketgunlariga qadar uni o‘zlariga omborchi qildilar.

Hijratning birinchi yillarda Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam namozxonlarni bir joyga jam qilish uchun azon aytishni hazrati Bilolga yukladilar. Shu bois u kishini ko‘plar “Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning muazzini” deb ulug‘lashardi. Bilol roziyallohu anhu ba’zi sabablarga ko‘ra, “ashhadu”ni “ashadu” deb aytar edi. Lekin uning dinga bo‘lgan mehru muhabbati, ixlosi hamda fidokorlik tuyg‘usi Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamga xush kelar edi. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam dunyodan ko‘z yumgunlariga qadar Madina va atrofidagi osmonlarda Bilolning roziyallohu anhuning ovozi jaranglab turdi. Makka fath qilinganda u yerdagi ilk azonni Hazrati Bilol aytdi. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning amrlari bilan Ka’ba tomiga chiqib, aytilingan bu azon shundan dalolat berdiki, o‘sha kundan e’tiboran bu uy faqat Allohga ibodat qilinadigan maxsus joyga aylangani hamda butun Arab yarim orollarida Islom dini g‘alaba qozonganidan dalolat berdi. Bunday sharaflı vazifa Bilol roziyallohu anhuga nasib qildi.

Islom insoniyat dunyosiga tenglik-barobarlik huquqini olib keldi. Masalan, Bilol roziyallohu anhu asli habash qabilasidan, qora tanli va tug‘ilishidan qul edi. U davrda arablarning hamma qabilasi, xususan, Quraysh qabilasi eng oliy nasabli qabilalardan hisoblanardi. Arabdan boshqa xalqlarga past nazar bilan qarab, odam o‘rnida ko‘rishmasdi hatto. Lekin Bilolga roziyallohu anhuga shunday ulug‘ maqom berildiki, Qurayshning eng ulug‘ kattakonlariga ham bu maqom nasib bo‘lmagan. Hazrati Bilolni qul deb emas, balki bizning ulug‘imiz, deb chaqirar edilar. Chunki Islom insonning nasl-nasabiga, rangi-ro‘yiga va vataniga qarab baho bermaydi, balki uning taqvosiga qaraydi.

Hazrati Bilol hamisha Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam bilan birga bo‘ldi. Barcha g‘azotlarda Payg‘ambarni sollallohu alayhi vasallamni himoya qilib turdi. Shu boisdan ham bo‘lsa kerak, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dunyodan ko‘z yumganlarida Hazrati Bilol roziyallohu anhu g‘amga botib, ruhan nochor ahvolga tushib qoldi. Azon aytishni ham tark etdi. Chunki Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamdan ajralganlik tuyg‘usi uning qalbini titratardi. Muayyan muddat bu g‘am-



qayg‘uni boshidan o‘tkazgandan keyin Islom lashkarlari bilan Shom tomonga yo‘l olib, jihodga hissa qo‘shdi.

Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam vafotidan so‘ng Hazrati Bilol roziyallohu anhu ikki marta azon aytdi.<sup>3</sup>

**Birinchisi**, Hazrati Umar roziyallohu anhu xalifalik davrida Baytul Muqaddasga kelganida Biloldan azon aytishni iltimos qildi. Hazrati Bilol uzr aytib turib oldi. Lekin Umar roziyallohu anhu ko‘p iltimos qilganidan so‘ng, noiloj azon aytishga turdi. Bilolning roziyallohu anhu aytgan azonidan yeru ko‘k larzaga keldi. Uning og‘zidan chiqqan har bir so‘z eshituvchilar qalbini go‘yoki sehrlab qo‘yganday, behush holatga keltirar edi. O‘z vaqtida Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam huzurida bo‘lgan sahabalar u azonni eshitib, xuddi avvalgi davrga qaytib kelganday his qilishdi o‘zlarini. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamdan ayrılganlik histuyg‘usi qaytadan tiklanib, yig‘lamagan odam qolmadı. Hazrati Umar roziyallohu anhu tog‘dek irodali odam edi, u kishi ham beixtiyor o‘zini yo‘qotib qo‘ydi.

**Ikkinchisi**: Hazrati Bilol roziyallohu anhu Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning qabrlarini ziyorat qilish uchun Shomdan Madinaga kelganida kishilar undan Payg‘ambar alayhissalom masjidida azon aytib berishni iltimos qilishdi. Hazrati Bilol rad etdi. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning sevimli nabiralari bo‘lmish Imom Hasan va Imom Husayn iltimos qilganidan so‘ng ularning iltimosini rad etishga jur’at etolmasdan yana azon aytdi. Masjidi nabaviyda Hazrati Bilolning roziyallohu anhu ovozi jaranglaganida Madinaning musaffo osmonida qayg‘u-alam uchqunlari keng yoyilib ketdi. Ovozining ta’sir kuchi shunchalik yuqori ediki, eshitgan kishi beixtiyor masjid tomon yo‘l olardi. Madinaga payg‘ambarlik zamonasi qaytib kelganday tuyulardi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki Hazrati Bilol xohlaganidek, o‘zini Alloh yo‘liga bag‘ishlab, Shomda vafot etdi. Bugun Damashq zaminida aqida va imon tarafida sabr va jasorat bilan turib berishda bashar erlarining eng ulug‘laridan b‘lgan kishining jasadi yotibdi... Bilol ibn Rabohni hayoti va faoliyati islom tarixida ahamiyatli shahsiyatdan biri sifatida taniladi. U Makkada tug‘ilgan va Habashiston aslidan bo‘lgan inson edi. Islomga kirishi, imon va sabri bilan ajralib turishi, Payg‘ambarni qanday yaxshi xizmat qilishi, muazzinlik vazifasini bajarishi va Payg‘ambarni vafot etgandan so‘ng ham imon va davom etuvchi sabr bilan ajralib turishi bilan bilib olingan. Bilol, islom tarixidagi birinchi muazzinlar dan biri b‘lib, uning ovozi o‘zining unikal xususiyatlariga ega edi. Payg‘ambarni eshitishi bilan

<sup>3</sup> Arabchadan Mubashshir Ahmad tarjiması | "Hidayat" jurnalining 2004-yil, 5-sonidan



tanilgan va Alloh yo‘liga eshik ochishga chaqirgan muazzinlar orasida u yuqori darajada e’tibor qozongan shahsiyat edi.Uning hayoti, islomni qabul qilish va Payg‘ambarga ishonchlarini ko‘rsatish, imon va rostlik mo‘jizalarini namoyish etish, namoz va ibodatning ahamiyatiga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. U imonga yetguncha, Alloh uchun o‘z nafsi qurban qilgan insonlardan biri bo‘lib, imoni va sabri bilan taninadi.Bilol ibn Rabohning muazzinlik vazifasini ifo etishi, azon aytilgan joylarda Islomning tarqatilishiga o‘z hissasini qo‘shtigan, insonlarni namozga chaqirgan va Alloh yo‘liga yo‘naltirgan bir vazifani bajarishda o‘zining ko‘p tomondan qatnashganligini ko‘rsatadi.Hayoti boyunca Bilol, Payg‘ambarga xizmat qilishda, imon va davom etuvchi sabr bilan muvofiq amal qilib, islom jamiyatida o‘zining xizmatini ifo etgan va uningdan ilhomlanib, Islomning tarqatilishi va namozxonlarni azon qilishda muhim rol o‘ynagan bir shahsiyatdir.Xulosa qilish bilan Bilol ibn Rabohning islom tarixidagi ahamiyati, imon va sabri, muazzinlik xizmati va Payg‘ambarni vafot etgandan so‘ng ham uning azonlarini ifo etishga davom etishi, insonlarni Alloh yo‘liga chaqirishda o‘zining ahamiyatini ko‘rshimiz mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom ensklapediyasi
2. Muslim.uz
3. 2004-2023 © islom.ziyouz.com.
4. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. Т., 1999.
5. Ahloq-odobga oid hadis namunalari. Toshkent, 1990. 62-bet.
6. Багрикенглик тамойиллари Декларатцияси .. ЮНЕСКО Халкар мөъёрий хужжатларию – Тошкет: Адолат, 2004. – Б. 92.
7. Узбекистон Республикасининг Конститутцияси. - Тошкент: Узбекистон, 2008. - 40 б.
9. Виждан еркинлиги ва диний ташкилотлар тугрисида (янги тахрири).
10. Узбекистон Республикасининг конуни. - Тошкент: Адолат, 1998.
11. Mo'minov A., Yo'Idoshho'jayev. "Dinshunoslik" o'quv qo'llanma.T.:2014.
12. M. Lafasovva boshqalar. M. Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurash. Metodik qo'llanma. - Toshkent: 2010.